



BUGUNI KUNDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH BO'YICHA ILG'OR XORIJIY TAJRIBA (JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH MISOLIDA)

Ubaydullaev Sherzod Muzaffarovich

O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti Maxsus-kasbiy
fanlar kafedrası katta o'qituvchisi, podpolkovnik
+99890 956-95-93

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21024601>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-iyun 2026 yil
Ma'qullandi: 27-iyun 2026 yil
Nashr qilindi: 29-iyun 2026 yil

KEY WORDS

Innovatsion rivojlanish, jamoat, xavfsizlik, global, axborot, texnologiya, raqamli texnologiya, internet, ma'naviyat, xorij tajribasi.

ABSTRACT

Mazkur maqolada bugungi jadal rivojlanayotgan zamonaviy dunyoda axborot kommunikatsiya vositalari, jamoat xavfsizligini ta'minlashning yangi paradigmasi sifatida namoyon bo'lishi, bu davlatning xavfsizlik siyosatini amalga oshirishi masalalari bilan bog'ligi yoriib berilgan. Shuningdek, aksariyat rivojlangan xorijiy davlatlarda aynan raqamli texnologiyalar bu borada markaziy o'rinni egallashi, boshqacha aytganda, davlatning jamoat xavfsizligini ta'minlash va fuqarolarni himoya qilishda zamonaviy texnologiyalar ob'ektiv zarurat (qonuniyat) darajasida ko'rilganligi o'rganilgan.

Jamoat xavfsizligini ta'minlashda zamonaviy axborot texnologiyalarining joriy etilishi kundan-kunga muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda axborot texnologiyalari jamoat xavfsizligini ta'minlashning muhim omiliga aylandi.

Hozirda O'zbekiston davlat boshqaruvi tizimida kechayotgan turli o'zgarishlar uning samaradorligini yanada oshirish, uni aniq va qat'iy mezonlar asosida tashkil qilishga qaratilgan yangi bosqich boshlanganini ko'rsatmoqda. Bu borada davlat boshqaruvi tizimiga axborot texnologiyalari faol joriy etilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev sohani yanada rivojlantirish ob'ektiv zarurat va dolzarb ekanini ta'kidlab shunday degan edi: "Butun dunyoda raqamli texnologiyalar barcha soha va odamlar hayotiga jadal kirib bormoqda. Bu yo'nalishga o'z vaqtida kirishgan davlatlar rivojlanib, aksincha, eskicha ishlaganlar taraqqiyotdan orqada qolyapti. Tarmoq va hudud rahbarlari raqamlashtirishsiz natija, rivojlanish bo'lmasligini tushunib yetishi shart. Barcha darajadagi rahbarlar buni o'ziga kundalik vazifa sifatida belgilab, raqamlashtirish sohasini alifbosidan boshlab chuqur o'rganishi kerak[1]. Shuningdek, yaqin, o'rta va uzoq istiqbolga mo'ljallangan strategik dasturlar "O'zbekiston – 2030" strategiyasi ishlab chiqildi va mamlakat hukumati oldiga Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) reytingining TOP-30 taligiga kirish vazifasi qo'yildi[2].

Bugun jadal rivojlanayotgan zamonaviy dunyoda axborot kommunikatsiya vositalari, jamoat xavfsizligini ta'minlashning yangi paradigmasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu davlatning xavfsizlik siyosatini amalga oshirishi masalalari bilan bog'liq. Aksariyat rivojlangan xorijiy davlatlarda aynan raqamli texnologiyalar bu borada markaziy o'rinni egallaydi.

Boshqacha aytganda, davlatning jamoat xavfsizligini ta'minlash va fuqarolarni himoya qilishda zamonaviy texnologiyalar ob'ektiv zarurat (qonuniyat) darajasida ko'riladi.

Bugungi axborot asrida zamonaviy texnologiyalar jamoat xavfsizligini ta'minlashdagi eng samarali usullardan biri sifatida dunyoning ko'plab davlatlarida joriy etilgan. Xususan, AQSh, Buyuk Britaniya, Shvesiya, Daniya, Norvegiya, Kosta-Rika, Qatar, BAA, Latviya, Estoniya, Chexiya va boshqa qator davlatlarda raqamli xavfsizlik tizimlari bir necha yillardan beri muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda.

Shu bois, G'arb davlatlarida zamonaviy texnologiyalar jamoat xavfsizligini ta'minlash samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri sifatida ko'rilmogda. Ayni paytda, xalqaro tajriba zamonaviy xavfsizlik tizimlari fuqarolarning huquq va erkinliklariga hurmat bilan yondashilgan hududlarda samarali faoliyat yuritayotganini ko'rsatmoqda. Zero, zamonaviy xavfsizlik tizimlari qonuniylik, shaffoflik va inson huquqlarini hurmat qilish tamoyillariga asoslanadi.

Ma'lumki, jamoat xavfsizligini ta'minlashda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish bo'yicha ilg'or xorijiy davlatlar tajribasi, mavjud shart-sharoit va infratuzilma konseptual yondashuvlar asosida o'rganib kelinmoqda. Bu borada jumladan, "raqamli xavfsizlik" tushunchasining mazmun-mohiyati, uning muhim jihatlariga e'tibor qaratilib, ma'lumki, "raqamli xavfsizlik" huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatining samaradorligini oshirish barobarida butun mamlakatda jamoat tartibini ta'minlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, jamoat xavfsizligini ta'minlashga ilg'or zamonaviy texnologiyalarni joriy etishda shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash masalasiga e'tibor qaratilgan. Bunda jumladan, "fuqarolarning shaxsiy hayoti daxlsizligini ta'minlash", "jamoat joylaridagi videokuzatuv tizimlaridan foydalanish qoidalari" va boshqa qator masalalar tobora dolzarblashmoqda.

Ta'kidlash joizki, mazkur masala judayam dolzarb bo'lib, bugungi kunda uning ilmiy va ijtimoiy-huquqiy asoslariga yetarlicha ahamiyat qaratilmagan. Ushbu bobda jamoat xavfsizligini ta'minlashda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish masalasiga alohida urg'u berilgan va u bilan bog'liq jarayonlar tahlil qilingan.

Shu bilan birga, mamlakatimizda o'tgan yillar mobaynida jamoat xavfsizligini ta'minlashda innovatsion texnologiyalarni joriy etish bilan bog'liq amalga oshirilgan islohotlarning dinamikasi tadqiq etilgan. Xususan, bunda mazkur sohadagi islohotlarning pirovard natijasi, bugungi kundagi holat, ekspert-mutaxassislarining bahosi, fuqarolarning munosabati, o'tkazilgan turli sotsiologik so'rovlar natijalari o'rganilgan.

O'rganishlar shu jumladan, ilg'or xorijiy davlatlarning tajribasi asosida O'zbekistonning bugungi taraqqiyot bosqichiga mos keladigan, jamoat xavfsizligini ta'minlashda zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanishga oid dolzarb va amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

O'zbekistonlik olim siyosiy fanlar doktori B.Omonovning fikricha, "davlat va jamiyat tizimida modernizatsiyalash elektron hukumatga ko'p tomonlama bog'liq jarayon bo'lib, davlat organlari faoliyatida aholi uchun AKTning joriy etilishi baravarida davlat boshqaruvida yangi imkoniyat yaratiladi. Elektron hukumat ikki muhim vazifani bajaradi: birinchisi, hukumat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilaydi; ikkinchisi, turli darajadagi davlat tashkilotlari (markaziy, hududiy, mahalliy) va turli sohalardagi (qonunchilik, ijro, sud hokimiyati) idoralar o'rtasidagi ichki munosabatlarni mustahkamlaydi[3].

Umuman olganda, jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimida innovatsiyalar quyidagi yo'nalishlarda bo'lishi mumkin:

- yangi yoki o'zgarishlar natijasida xavfsizlikni ta'minlovchi tarkibiy tuzilmalarni tashkil qilish;
- jamiyat xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq texnologik, axboriy, huquqiy va boshqa mexanizmlarni qo'llash;
- huquqni muhofaza qiluvchi organlarning fuqarolik jamiyati institutlari va xususiy xavfsizlik tuzilmalari bilan o'zaro hamkorligini ta'minlash;
- xavfsizlik organlari faoliyatining yangi shakl va uslublarini joriy etish;
- muayyan vazifalarni hal qilishda xavfsizlik texnologiyalarini, zamonaviy yondashuv va vositalarni qo'llash.

O'rganishlar asosida jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimiga oid quyidagi innovatsion texnologiyalarni ko'rsatish mumkin:

- benchmarking — xavfsizlik sohasidagi eng ilg'or tajribani qo'llash;
- elektron xavfsizlik tizimlari;
- xavfsizlik ko'rsatkichlarining muvofiqlashtirilgan tizimi;
- preventiv xavfsizlik konsepsiyasi;
- yangi xavfsizlik boshqaruvi;
- maqsadli xavfsizlik dasturlari;
- natijalarga mo'ljallangan xavfsizlik siyosati;
- reinjining — xavfsizlik tizimini qayta tashkil qilish, takomillashtirish;
- loyihaviy yondashuv.

Ushbu innovatsion texnologiyalardan kelib chiqib aytish mumkinki, bugungi kunda jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimi xavfsizlik ma'lumotlarining tezkorligi, aniqligi, faolligi va ishonchliligini belgilaydigan murakkab hamda yuqori samarali texnik/texnologik axborot bazasidan foydalanishga asoslangan bo'lib, bu xavfsizlik xizmati xodimlarining kasbiy faoliyati samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Ayni paytda, xavfsizlik tizimining samaradorligi ko'p jihatdan ilmiy-texnikaviy ta'minlanganlik darajasiga, zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning intensivligi va tegishli jarayonlar bilan o'zaro muvofiqlashtirilganligiga bog'liq. Shu ma'noda, raqamli texnologiyalar jamiyat xavfsizligini ta'minlashning innovatsion mexanizmi bo'lib, u xavfsizlik tizimini zamonaviy tendensiyalar asosida takomillashtiradi. Uni amalga oshirish samaradorligi uchun jamiyatning texnologik va moliyaviy imkoniyatlari, aholining huquqiy madaniyati darajasi, xavfsizlik tizimining rivojlanganlik darajasi, mutaxassislarining malakasi va texnologik tayyorgarligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Davlat boshqaruvi tizimiga zamonaviy texnologiyalar joriy etilishi bir qator vazifalarni amalga oshirishni taqozo etadi.

Birinchidan, qulay infratuzilmani yaratish, jumladan Internet tarmog'ini kengaytirish, uning sifatli ishlashini ta'minlash. Shuningdek, yirik ma'lumotlar bazasini shakllantirish (*Big Data*);

Ikkinchidan, zamonaviy texnologiyalar bilan ishlay oladigan, ularni amalda qo'llay oladigan mutaxassis-kadrlarni tayyorlash. Shu bilan birga, texnologiyalarning qisqa fursatlarda o'zgarib yanada takomillashib borayotganini inobatga olib, mutaxassislarining bilimlarini muntazam tarzda oshirib boradigan platformani yaratish;

Uchinchidan, davlat hokimiyati idoralarining aholiga xizmat ko'rsatish turlarini muttasil kengaytirib borishi uchun o'z vazifalarini "raqamli" texnologiyalarga moslashtirishi;

To'rtinchidan, davlat hokimiyati idoralarida o'zaro axborot almashinuvini onlayn (offlayn) shaklga o'tkazish (bu ortiqcha qog'ozbozlik va byurokratiyani kamaytiradi);

Beshinchidan, davlat boshqaruvi tizimining fuqarolar, fuqarolik jamiyati institutlari va OAV bilan o'zaro hamkorlikka tayyorligi, jumladan bunda ochiqlik va hisobdorlik tamoyillarining ustuvorligi;

Oltinchidan, zamonaviy texnologiyalarning asosan axborot, shu jumladan Internet tarmog'iga asoslanishini inobatga olgan holda aniq harakatlar algoritmidan iborat axborot xavfsizligini (kiberxavfsizlik) ta'minlash;

Yettinchidan, zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish uchun tegishli qonunchilik asoslarining mavjudligi va h.k.

Zamonaviy mamlakatlarni ijtimoiy-siyosiy hamda iqtisodiy modernizatsiya qilishdagi yangi yo'nalishlar olimlar tomonidan turli davrlarda o'rganib kelingan. Xususan, Y.Shumpeter g'oyasiga asoslangan innovatsion iqtisodiyot[4], AQShlik olim D.Bell tomonidan asoslangan postindustrial jamiyatning rivojlanish tendensiyalari[5], J.Xokinsning bilimlar iqtisodiyoti yoki kreativ iqtisodiyot nazariyasi[4], Y.Benklerning "Digital Economy" deb nomlangan ilmiy ishi[6] hamda D.Tepskott tomonidan o'rganilgan raqamli iqtisodiyot[6] shular jumlasidandir.

Ta'kidlash kerakki, so'nggi yillarda jamoat xavfsizligini ta'minlashning yangi paradigmasida inson huquqlarini himoya qilish (gumanitar) va texnologik (infratuzilmaviy) omillar yetakchi (dominant) ahamiyatga ega bo'lmoqda. Ayni paytda, xavfsizlik tizimining kommunikativ vazifasi markaziy o'ringa chiqmoqda. Zero, u huquqni muhofaza qiluvchi organlarning jamoatchilik bilan o'zaro aloqalarini tartibga solib turishda va shu orqali fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishda katta o'rin tutadi.

Ushbu jarayondagi muhim jihatlardan yana biri xavfsizlik organlarining jamoatchilik oldidagi hisobdorligi darajasi ortib bormoqda. Bu esa o'z navbatida, jamoat xavfsizligini ta'minlashda fuqarolar ishtirokini kengaytirish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish va fuqarolarning huquq-tartibotni saqlashdagi faol ishtirokini rag'batlantirishga xizmat qilmoqda.

Ayni paytda, AKT tizimlarini davlat boshqaruviga joriy etish davlat boshqaruvining ichki idoraviy yo'naltirilganligidan fuqarolarning ehtiyojlariga yo'naltirishni taqozo etadi[7]. Bu esa o'z navbatida, demokratik taraqqiyotning asosini tashkil qiladi, zotan bunda inson manfaati markaziy o'rinni egallashini ko'rish mumkin.

Zamonaviy dunyoda Internetning siyosiy jarayonlarga ta'sirini inkor qilish qiyin. Zero, Internet va umuman axborot-kommunikatsiya texnologiyalari davlat hokimiyatining faoliyatini o'zgarishiga sabab bo'lmoqda. Bu jumladan, fuqarolarning siyosiy institutlarga bo'lgan talabi kundan kunga oshayotgani bilan bog'liq. Bu borada innovatsion mexanizmlar davlat hokimiyati va fuqarolar o'rtasida kommunikatsion jarayonlarning o'rnatilishida ob'ektiv zarurat sifatida yuzaga chiqmoqda

Bundan ko'zlangan asosiy maqsad fuqarolarning jamiyat hayotida ishtirokini kengaytirish hisoblanadi. Bunda davlatning o'z fuqarolariga davlat ahamiyatiga molik axborotdan foydalanishlariga erkinlik berishi, masalan, elektron saylovlar, onlayn muhokamalar va boshqa siyosiy jarayonlarda ishtirok etish imkoniyatini kengaytirishi muhim

o'rin tutadi. Bu orqali esa, davlat boshqaruvi organlari fuqarolarni fikrini (pozitsiyasini) bilishi, monitoring qilishi va zarur hollarda boshqarishi mumkin.

Zamonaviy dunyoda axborot kommunikatsiya vositalari jamoat xavfsizligini ta'minlashning yangi paradigmasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu davlatning xavfsizlik siyosatini amalga oshirishi masalalari bilan bog'liq. Aksariyat rivojlangan xorijiy davlatlarda aynan raqamli texnologiyalar bu borada markaziy o'rinni egallaydi. Boshqacha aytganda, davlatning jamoat xavfsizligini ta'minlash va fuqarolarni himoya qilishda zamonaviy texnologiyalar ob'ektiv zarurat (qonuniyat) darajasida ko'riladi.

Ta'kidlash kerakki, xalqaro maydonda jamoat xavfsizligini ta'minlashga zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish bo'yicha qator amaliyotlar (ijobiy va salbiy) mavjud bo'lsa-da, barcha davlatlarga birdek mos keladigan yagona tizim yaratilmagan. Bu bizningcha, har bir davlatning taraqqiyot bosqichi turlichaligi, tegishli infratuzilmaning holati, aholining huquqiy va texnologik savodxonligi darajasi va boshqa ko'plab omillar bilan bog'liq.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev qayd etganidek, "Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz shart va zarur. Bu bizga rivojlanishning eng qisqa yo'lidan borish imkonini beradi" [9]. Zero, jamoat xavfsizligining samarali himoyasi tizimdagi turli axborotni himoya qilish vositalarini unga bo'ladigan ehtimoliy tahdid va xavf-xatarlarga qarshi turadigan hamda bartaraf etishga qaratilgan faoliyatni talab etadi. Bunda tizimning barcha bo'g'inlarida xavfsizlik siyosati ishlab chiqilishi va uning foydalanuvchilarga tushunarli bo'lishi muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M: Raqamli iqtisodiyotsiz mamlakat iqtisodiyotining kelajagi yo'q // president.uz/uz/lists/view/3848
2. Mirziyoyev Sh.M: Elektron hukumatni rivojlantirish bo'yicha takliflar// president.uz/uz/lists/view/6653
3. Omonov B. Elektron hukumat erkinlashuv omili. Xalq so'zi gazetasi rasmiy sayti // xs.uz/uz/post/elektron-hukumat-zhamiyat-erkinlashuvi-omili
4. Шумпетер Й. Теория экономического развития. Капитализм, социализм и демократия. М.: Эксмо, 2007. С. 862.
5. Белл Д. Грядущее постиндустриальное общество. Опыт социального прогнозирования. М.: Academia, 1999. С. 956.
6. Howkins J. The Creative Economy: How People Make Money from Ideas. London: Penguin. 2001.
7. Benkler Y. The Wealth of Networks: How Social Production Transforms Markets and Freedom. New Haven, Conn: Yale University Press, 2006. P. 515
8. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. B-24.